

AMAZON KOMPANIYASINING TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDAGI INNOVATSION BIZNES MODELII

Parizod Maxmudova

*Toshkent axborot texnologiyalari
Universtiteti 2-bosqich magistri*

Kalit so'zlar: Amazon, transchegaraviy elektron tijorat, xalqaro, FBA, UNCTAD, OECD, AWS, biznes modeli, global.

Annotatsiya. Transchegaraviy elektron tijorat global iqtisodiy integratsiyaning asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Uning rivojlanishida Amazon kabi yirik platformaning o'rni beqiyosdir. Mazkur bo'limda ushbu kompaniyaning biznes modeli, innovatsion yondashuvlari va transchegaraviy elektron tijoratdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

ИННОВАЦИОННАЯ БИЗНЕС-МОДЕЛЬ КОМПАНИИ AMAZON В ТРАНСГРАНИЧНОЙ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

Паризод Махмудова

*Ташкент информационные технологии
Университет, 2-й цикл, степень магистра*

Ключевые слова: Amazon, трансграничная электронная коммерция, международный, FBA, UNCTAD, OECD, AWS, бизнес-модель, глобальный.

Аннотация. Трансграничная электронная коммерция становится одним из ключевых факторов глобальной экономической интеграции. В её развитии трудно переоценить роль таких крупных платформ, как Amazon. В данном разделе рассматриваются бизнес-модель этой компании, её инновационные подходы и значение в сфере трансграничной электронной торговли.

AMAZON'S INNOVATIVE BUSINESS MODEL IN CROSS-BORDER E-COMMERCE

Parizod Makhmudova

*2nd cycle Master's degree,
Tashkent University of Information Technologies*

Keywords: Amazon, cross-border e-commerce, international, FBA, UNCTAD, OECD, AWS, business model, global.

Abstract. Cross-border e-commerce is becoming one of the key drivers of global economic integration. Major platforms like Amazon play a crucial role in this process. This section analyzes the company's business model, its innovative strategies, and its significance in cross-border e-commerce.

Kirish

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global savdo jarayonlarini tubdan o'zgartirib, transchegaraviy elektron tijoratni zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylantirdi. Xalqaro savdoning yangi shakli sifatida elektron tijorat korxonalarga yangi bozorlarni ochish, xaridorlarga esa dunyo miqyosida mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkonini bermogda. Ayniqsa, Amazon kabi global miqyosda faoliyat yurituvchi yirik elektron savdo platformalari ushbu jarayonning ilg'or drayverlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Amazon nafaqat onlayn chakana savdo bozorini shakllantirdi, balki logistika, raqamli oqim, bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohalarida ham o'zining noyob va innovatsion yondashuvlari orqali elektron tijorat infratuzilmasining global modelini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu maqolada Amazon kompaniyasining transchegaraviy elektron tijoratdagi o'rni, uning asosiy biznes modeli va innovatsion faoliyat yo'nalishlari tahlil qilinadi hamda kompaniyaning global raqobatbardoshlikka erishish strategiyasi yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ushbu maqolada Amazon kompaniyasining transchegaraviy elektron tijoratdagi faoliyatini yoritishda bir qator muhim manbalardan foydalanildi. Amazon.com, Inc.ning 2023-yilgi yillik hisobotida kompaniyaning global savdo faoliyati, logistika tizimi va FBA modeli haqida rasmiy va dolzarb ma'lumotlar keltirilgan. Jassy asarida AWS'ning bulutli hisoblashdagi roli va Amazonning texnologik ustunliklari yoritilgan. OECD (2020) va UNCTAD (2023) hisobotlari global elektron tijorat tendensiyalari, pandemiya ta'siri hamda raqamli savdoning rivojlanish istiqbollari bo'yicha keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Galloway (2021) tomonidan yozilgan asarda Amazonning raqobatbardosh modeli va raqamli ekotizimi tahlil qilinadi. Stone (2013) esa kompaniya tarixini, Jeff Bezosning rahbarlik uslubi va Amazon'ning shakllanish jarayonini tushuntirib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Amazon transchegaraviy elektron tijoratning rivojlanishiga oid masalalar sifatli tahliliy uslubda yoritildi. Tadqiqotda asosan ikkilamchi manbalar kompaniyaning yillik hisobotlari, xalqaro tashkilotlar (UNCTAD, OECD) nashrlari, ilmiy maqolalar va mavzuga oid kitoblar asos sifatida olindi. Kontent tahlili orqali Amazon'ning biznes modeli, FBA va AWS kabi xizmatlari, logistika va bojxona tizimi, shuningdek, innovatsion yondashuvlari o'rganildi. Amaliy tajribalar va raqamli ko'rsatkichlar asosida xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Amazon kompaniyasi asosan **B2C** (Business-to-Consumer) model asosida faoliyat yuritadi. Ya'ni, mahsulotlarni o'zi saqlaydi, sotadi va mijozga yetkazib beradi. Amazon o'zining **Fulfillment by Amazon (FBA)** dasturi orqali uchinchi tomon sotuvchilarga logistika va mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu model mahsulotlarni Amazon omborlarida saqlash, buyurtmalarni qadoqlash va xalqaro yetkazib berishni o'z ichiga oladi.

Amazon innovatsiyalar borasida yetakchi kompaniyalardan biri sanaladi. **Amazon Global Logistics** orqali mahsulotlar dunyoning 200 dan ortiq mamlakatiga yetkaziladi. **Amazon Customs Clearance Service** esa bojxona hujjatlarini avtomatlashtirib, mahsulotlarning tez va muammosiz chegaradan o'tishini ta'minlaydi. Xaridorlar mahsulot buyurtma qilayotganda bojxona va import soliqlari haqida oldindan to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar.

Amazon, shuningdek, **Prime Air** dasturi doirasida dronlar orqali tezkor yetkazib berish xizmatlarini rivojlantirmoqda. 2023-yilda Amazonning xalqaro savdo daromadining 25 foizdan ortig'i transchegaraviy savdo operatsiyalaridan olingan bo'lib, bu kompaniyaning global logistika va bojxona jarayonlarini avtomatlashtirishdagi muvaffaqiyatini ko'rsatadi.

Amazon innovatsion biznes modelini tezlikda rivojlanishi asosiy to'rt ustun ustiga qurilgan imperiya deb atasak xato bo'lmaydi, ushbu to'rt ustunni har birini alohida ko'rib chiqamiz:

1. **Elektron tijorat – Amazon imperiyasining asosi.** Amazon'ning asosiy daromad manbai elektron tijorat hisoblanadi. U o'zining yirik onlayn bozorida millionlab mahsulotlarni – kitoblar, elektronika, kiyim-kechak va oziq-ovqatgacha – taklif etadi. Shuningdek, Amazon Prime Video xizmatining o'zi to'g'ridan-to'g'ri katta daromad keltirmasligi mumkin, ammo bu servis mijozlar sodiqligini oshirish orqali kompaniya ekotizimining ajralmas qismiga aylangan. Prime Video orqali original kontent, litsenziyalangan filmlar hamda qo'shimcha pullik kanallar taqdim etiladi. Jeff Bezos bu haqda shunday degan: “Agar biz Oltin globus yutib olsak, bu bizga ko'proq oyoq kiyim sotishga yordam beradi.” Ya'ni, Amazon har bir xizmatini butun ekotizimining bir qismi sifatida ko'radi. Garchi Prime Video Netflix va Disney+ kabi raqobatchilarga duch kelsa-da, uni Prime a'zolik bilan bog'lash Amazon'ga mijozlarni jalb qilish va ushlab qolishda ustunlik beradi.

2. **Bulutli hisoblash – foyda dvigateli.** Elektron tijorat Amazon'ning eng taniqli faoliyat yo'nalishi bo'lsa-da, Amazon Web Services (AWS) kompaniyaning eng yuqori daromadli bo'limidir. AWS foydalanuvchilarga talabga asoslangan bulutli platformalarni taqdim etadi. AWS bugungi kunda internet infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan va ko'plab kompaniyalar undan foydalanmoqda. Uning muvaffaqiyati bir necha omillar bilan izohlanadi: bulutli hisoblashda birinchi harakat

qilganligi (first-mover advantage), miqyoslash qulayligi, keng xizmatlar spektri (saqlash, hisoblash, sun'iy intellekt) va yuqori ishonchlilik. AWS sobiq rahbari Endi Jassi bu haqida shunday degan: "Tajriba uchun siqish algoritmi yo'q." Ya'ni, kompaniya foydalanuvchilar fikri va real holatdagi ishlanmalar asosida uzluksiz takomillashadi. 2022 yil 4-choragida AWS 21,4 milliard dollar sof daromad va 5,2 milliard dollar operatsion foyda keltirdi, bu esa Amazon'ning boshqa sohalarga sarmoya kiritishiga imkon berdi.

3. **Raqamli oqim – ekotizimni mustahkamlovchi kuch.** Amazon raqamli oqim (digital streaming) sohasida ham faol ishtirok etadi, bunda Prime Video eng muhim o'rin tutadi. Garchi Prime Video alohida katta foyda Sotuvchilar foydasi a-da, u kompaniya xizmatlarini bog'laydigan asosiy vositadir. Amazon Studios tomonidan suratga olingan mukofotli filmlar va seriallar, shuningdek, boshqa studiyalar tomonidan taqdim etilgan litsenziyalangan kontent platforma foydalanuvchilarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar qo'shimcha pullik kanallarni ham obuna qilib olishlari mumkin. Shu tarzda, Prime Video mijozlar tajribasini boyitadi va Amazon xizmatlarining to'liq ekotizimiga integratsiya qilinadi.

4. **Sun'iy intellekt – Amazon'ning kelajagi.** Sun'iy intellekt (AI) va mashinali o'rganish (ML) Amazon faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarida asosiy rol o'ynaydi. AI mahsulot tavsiyalarini shaxsiylashtirish, ovozli buyruqlarni tanish (Alexa qurilmalari orqali), ombor va logistika jarayonlarini oldindan prognoz qilishda qo'llaniladi. Shuningdek, AWS orqali boshqa kompaniyalarga ham AI va ML vositalari taqdim etiladi. Amazon'ning AI'dan foydalanayotgan asosiy sohalari: shaxsiylashtirish, talabni prognoz qilish, Foyda/ zarar va AmazonDaromad oqimi va AWS AI xizmatlari. Bu texnologiyalar nafaqat hozirgi jarayonlarni soddalashtiradi, balki kompaniyaning kelajakdagi raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Amazon.com, Inc.** – Annual Report 2023. <https://www.amazon.com/ir>
2. Jassy, A. (2022). *AWS and the Future of Cloud Computing*. Amazon Web Services Press.
3. OECD (2020). *E-commerce in the time of COVID-19*. OECD Policy Responses to Coronavirus (COVID-19).
4. UNCTAD (2023). *E-commerce and Digital Economy Report 2023*. United Nations Conference on Trade and Development.
5. Galloway, S. (2021). *The Four: The Hidden DNA of Amazon, Apple, Facebook, and Google*. Penguin Random House.
6. Stone, Brad (2013). *The Everything Store: Jeff Bezos and the Age of Amazon*.